

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 29- apreldagi
61-son buyrug'iga
ILOVA

**Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy
faoliyat turi va yillik o'rtacha xodimlari soni
to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash
REGLAMENTI**

Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o'rtacha xodimlari soni to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash reglamenti (keyingi o'rinlarda reglament) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan hamda statistika organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning ro'yxatini yuritish, hisobot topshiruvchi tashkilotlarning maqsadli jamlanmasini tuzish va yig'ma statistik ma'lumotlarni shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi asosida, tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Ushbu reglament elektron shaklda taqdim etilmaydigan (ya'ni tarqatilishi cheklangan grifiga ega bo'lgan) statistika hisobotlarini yig'ish va qayta ishlashni tashkil etishga tatbiq etilmaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Reglament GSBPMning tahlil qilish bosqichi doirasida tahliliy ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi (keyingi o'rinlarda IFUT-2 deb ataladi) asosida Tadbirkorlik subyektlari (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)ni asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o'rtacha xodimlarining soni to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash (keyingi o'rinlarda aktualizatsiya qilish deb ataladi) reglamenti tartibi va muddatlarini belgilaydi.

3. Statistika organlari Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini, shuningdek, to'planadigan ma'lumotlar hisobga olinishini va ko'rsatkichlar

identifikatsiya qilinishini ta'minlaydigan statistika kuzatuvlari obyektlarining statistika registrilarini yuritishda va maqsadli jamlanmani to'g'ri shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 539-son va 2017-yil 9-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2016-yil 28-oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 66-son qarorlarida statistika kuzatuvlari obyektlari ma'lumotlar bazalarini shakllantirish va muntazam yangilab borish belgilab qo'yilgan.

5. Mazkur reglament Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi boshqarmasining (keyingi o'rinlarda – Tadbirkorlik boshqarmasi) 1 kb shakli (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" hamda 1 korxona shakli (yillik) "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot" hisobotlari asosida yuridik shaxsning asosiy faoliyat turi va undagi ishlovchilarning o'rtacha yillik soni o'zgarishi va yangilanishi (keyingi o'rinlarda – aktualizatsiya) bo'yicha tadbirkorlik subyektlari aktualizatsiyasini o'tkazish tartibi va muddatlarini belgilaydi.

6. Kichik korxona va mikrofirmalarning aktualizatsiyasi 1 kb shakli (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" statistika hisoboti ma'lumotlari asosida hamda kichik korxona va mikrofirmalardan tashqari tadbirkorlik subyektlarining aktualizatsiyasi 1 korxona shakli (yillik) "Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida" statistika hisoboti ma'lumotlari asosida mas'ul tarmoq boshqarmalari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

7. Tadbirkorlik subyektlarini aktualizatsiya qilish tegishli tarmoq boshqarmalari tomonidan elektron raqamli imzosi (ERI) bilan tasdiqlangan ma'lumotlar asosida Korxona va tashkilotlarning yagona Davlat registri (keyingi o'rinlarda KTYADR) ma'lumotlar bazasiga Statistik registrilarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi (keyingi o'rinlarda – Registr boshqarmasi deb ataladi) tomonidan o'zgartirish amalga oshiriladi.

8. Ushbu reglamentda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

aktualizatsiya – yuridik shaxsning asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o'rtacha xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash;

iqtisodiy faoliyat turi – bu muayyan tovarlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun moddiy resurslar, mehnat va ishlab chiqarish texnologiyalari kombinatsiyasida sodir bo‘ladigan jarayon;

qo‘shimcha faoliyat turi – bu tashkilotning birlamchi va ikkilamchi faoliyatiga ko‘maklashishga yo‘naltirilgan oraliq tisdagi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ta‘minlovchi faoliyat hisoblanadi;

iqtisodiy faoliyatning ikkinchi darajali turi deganda bunday birlikning uchinchi tomonlarga berish uchun yaroqli tovar yoki xizmatlar ishlab chiqarish bo‘yicha iqtisodiy faoliyatning har qanday boshqa turi ko‘zda tutiladi;

seksiya – bu IFUT-2 ning birinchi (yuqori) daraja harfli kod bilan belgilanishi;

MST – mahsulotlarning (tovarlar, ishlar va xizmatlar) statistik tasniflagichi.

9. Birinchi marta yillik statistika hisobotini taqdim etguniga qadar tadbirkorlik subyektlari uchun davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytida e‘lon qilingan IFUT-2 kodi davlat statistika organlari tomonidan asosiy faoliyat turi sifatida qaraladi.

10. Korxona va tashkilotlarning ayrim toifalarini asosiy faoliyatini belgilashning o‘ziga xos xususiyatlari:

bank va sug‘urta tashkilotlari uchun asosiy faoliyat turi agar, ular boshqa faoliyat turlarini amalga oshirgan hollarda ham, asosiy iqtisodiy faoliyat turining kodi o‘zgarmaydi;

davlat boshqaruvi organlari, tijorat boshqaruvi tashkilotlari, budjet va jamoat tashkilotlari uchun asosiy faoliyat turi ularning nizomiga muvofiq amalga oshiriladi. Agar ular boshqa iqtisodiy faoliyat turlarini amalga oshirgan hollarda ham, asosiy faoliyat turi o‘zgarmaydi;

tijorat tashkilotining yuridik maqomga ega bo‘lmagan alohida bo‘linmalari ham aktualizatsiya qilinmaydi. Aktualizatsiya faqat yuridik maqomga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari bo‘yicha o‘tkaziladi.

11. Tadbirkorlik subyektining hisobot ma‘lumotlariga muvofiq asosiy faoliyat turi ijara xizmatlarini ko‘rsatish bo‘lsa, u holda, ushbu ma‘lumotlar ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy miqdoriga kiritilishi kerak. Shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyat turi boshqa bo‘lib, tezkor ijara faoliyati ma‘lumotlari boshqa daromadlar tarkibiga kiritilgan bo‘lsa, u holda, boshqa daromad hisoblanadi va alohida faoliyat turi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

Xuddi shunday holat, metallolomni topshirishdan keladigan daromadlarga ham taalluqlidir.

2-bob. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini aktualizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari

12. Xo'jalik yurituvchi subyekt bir yoki bir nechta iqtisodiy faoliyat turini amalga oshirishi mumkin.

Korxona hisobot yili yakunlari bo'yicha mikrofirma, kichik korxona va boshqa toifa subyekti sifatida hisoblanishi uchun yil yakunlariga ko'ra asosiy faoliyat turini aniqlash Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarori bilan tasdiqlangan Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan tashkilotlar klassifikatsiyasidan foydalangan holda amalga oshirish tartibi joriy etilgan. Shuningdek, asosiy faoliyat turini aniqlash uchun "O'zstandart" agentligining 2011-yil 28-yanvardagi 05-268-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT-2)dan foydalaniladi.

Agar iqtisodiy birlikning qo'shimcha qiymat hajmida biror faoliyat turi hissasi ko'proq bo'lsa, shu faoliyat turi asosiy hisoblanadi. Agar qo'shimcha qiymat haqida ma'lumotlar bo'lmasa, qo'shimcha qiymat mezonni asosida olinishi mumkin bo'lgan tasniflashga imkoni boricha yaqinlashtirish uchun aylanma, bandlar soni, ish haqi miqdori va boshqa shu kabi mezonlardan foydalaniladi.

Agar amalga oshirilayotgan faoliyat turlaridan birortasining ulushi 50 % dan oshsa, u avtomatik tarzda asosiy faoliyat turi deb belgilanadi. Birorta ham faoliyat turining ulushi 50 % dan oshmasa, asosiy faoliyat turini aniqlash uchun tasniflashning yuqoridan pastga prinsipi qo'llaniladi, ya'ni 5 xonali kod darajasidagi birlikning tasnifi, tuzilmaning yuqoriroq darajasidagi tasnifiga mos kelishi kerak. Shunday qilib, birinchi bosqichda qo'shimcha qiymatdagi ulushi eng yuqori bo'lgan seksiya aniqlanadi, keyin aynan shu seksiya ichidan mos keluvchi bo'lim, shu bo'limdagi guruh, sinf va kichik sinf aniqlanadi.

Masalan: "A" xususiy korxonasi tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmi (aylanmasi) yil davomida jami 435 mln.so'mni tashkil etgan. Jumladan:

- sanoat ishlab chiqarishida 150 mln. so'm, shundan, 90 mln.so'm mebel ishlab chiqarishda va 60 mln.so'm esa to'qimachilik mahsulotini ishlab chiqarishda amalga oshirilgan;

- xizmatlar sohasida 140 mln. so'm, shundan, 80 mln.so'm transport xizmatidan va 60 mln.so'm savdo faoliyatining yalpi daromadidan iborat;

- qurilish sohasida 145 mln. so'm, shundan, 115 mln.so'mi yangi qurilish ishlari 30 mln.so'm kapital ta'mirlashdan iborat.

Bunda korxonaning asosiy faoliyat turi quyidagicha aniqlanadi:

Dastlab eng yuqori ulushga ega bo'lgan seksiyani hamda keyingi bosqichda ushbu seksiya ichidan eng yuqori ulushga ega bo'lgan faoliyatni aniqlab olamiz. Buning uchun esa quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

a) har bir seksiyani jami ishlab chiqarishdagi ulushini hisoblab chiqish:

Sanoat seksiyasi ulushi – $150/435 \cdot 100 = 34,5\%$,

Xizmatlar seksiyasi ulushi – $140/435 \cdot 100 = 32,2\%$

Qurilish seksiyasi – $145/435 \cdot 100 = 33,3\%$

b) eng yuqori ulushga ega bo'lgan seksiyani tanlab olish:

Ushbu misolda yuqoridagi hisob kitoblar asosida eng yuqori ulush (34,5%)ni sanoat seksiyasi tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun bu holatda sanoat seksiyasi tanlab olinadi.

d) eng yuqori ulushga ega bo'lgan seksiya ichidan yuqori ulushga ega bo'lgan asosiy faoliyatni tanlab olish:

Bu bosqichda tanlab olingan sanoat seksiyasi ichidagi faoliyatlar ulushlarini hisoblab olish zarur. Sanoat seksiyasida mebel ishlab chiqarish hamda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi alohida faoliyat turlari mavjud. Yuqorida qo'llanilgan uslubdan foydalangan holda mebel ishlab chiqarish va to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni alohida hisoblab olamiz.

Xususan: Mebel ishlab chiqarish sanoati ulushi – $90/150 \cdot 100 = 60\%$,

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati ulushi – $60/150 \cdot 100 = 40\%$

e) korxonaning asosiy faoliyat turini aniqlash:

*Ushbu korxonada sanoat seksiyasi bo'yicha eng yuqori ulush ($60\% > 40\%$) bu mebel ishlab chiqarishga tegishli. Demak, ushbu korxonaning **asosiy faoliyat turi deb mebel ishlab chiqarish** e'tirof etiladi va ushbu korxonaga MST kodining xos raqamidan foydalangan holda mos IFUT-2 kodi belgilanadi.*

13. Birlamchi va ikkilamchi faoliyat turlarini aniqlashda eng aniq mezon qo'shilgan qiymat hisoblanadi (ma'lum bir davrda sotilgan mahsulotlar va korxona tomonidan sotib olingan qiymat o'rtasidagi farq bilan shu davrda unga boshqa korxonalar tomonidan taqdim etilgan (ta'mirlash, marketing, xizmat ko'rsatish va h.k.lar bo'yicha) mehnat obyektlari va xizmatlar). Ammo amalda statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida har bir faoliyat turi bo'yicha ushbu ma'lumotlarni aniqlashning imkoni mavjud emas.

Shuning uchun, statistika hisobotlarida amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) (QQS va aksizsiz) hajmida savdo faoliyati uchun faqat yalpi daromad hisobga olinadi.

3-bob. Kichik korxona va mikrofirmalarni aktualizatsiya qilish

14. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun 1 kb shakli (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” statistika hisoboti ma’lumotlaridan foydalaniladi. Ushbu hisobotga asosan kichik korxona va mikrofirmalarning faoliyatini aktualizatsiya qilishning **asosiy mezon** – **amaldagi narxlarda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmi (aylanma)** hisoblanadi. Ushbu aylanmada 1 kb shakli (yillik) hisobotiga asosan faqatgina qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yo‘nalishida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi emas sotilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) hajmi mezon sifatida qaraladi. Aktualizatsiyaga tushgan korxonalar ro‘yxatidan davlat boshqaruvi va boshqaruv kompaniyalarini chiqarib tashlab, keyin quyidagi tartibda asosiy faoliyat turini aniqlash davom ettiriladi.

Dastlab, barcha faoliyat turlari bo‘yicha amaldagi narxlarda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning (ishlar, xizmatlar) umumiy hajmi aniqlanadi. Buning uchun quyidagi ko‘rsatkichlar umumlashtiriladi (1 kb shakli bo‘yicha):

1) Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz);

Masalan: “B” korxonasi 2 xil sanoat hamda savdo faoliyat turi bilan shug‘ullanadi. Korxonada hisobot yilida jami amaldagi narxlarda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmi 500 mln.so‘mni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan jami mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmidan 300 mln.so‘m sanoat, 200 mln.so‘m savdo faoliyati xizmati (yalpi daromad)dan iborat. Korxonaning asosiy faoliyatini quyidagicha aniqlanadi:

sanoat faoliyati ulushi – $300/500 \cdot 100 = 60 \%$

savdo faoliyati ulushi – $200/500 \cdot 100 = 40 \%$

Shunday qilib, ushbu misolda korxonaning asosiy faoliyati sanoat hisoblanadi sababi, eng yuqori ulush aynan sanoatga to‘g‘ri kelgan va shundan kelib chiqib korxonaning asosiy faoliyati IFUT-2 kodi belgilanadi.

2) Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatishda **sotilgan** mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmi;

Masalan: “C” korxonasi chorvachilik va qoramollarni ulgurji savdo faoliyati bilan shug‘ullangan. Korxona hisobot yilida jami 170 mln.so‘mlik ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlarini sotgan hamda 360 mln.so‘mlik chorva mollari ulgurji savdo aylanmasini amalga oshirgan, ulgurji savdo xizmatlari (yalpi daromadi) hajmi 50 mln.so‘mni tashkil etdi.

Korxonaning asosiy faoliyati quyidagicha aniqlanadi:

chorvachilik faoliyati ulushi – $170/220 \cdot 100 = 77,3 \%$;

ulgurji savdo faoliyati ulushi – $50/220 \cdot 100 = 22,7 \%$.

Shunday qilib, ushbu misolda korxonaning asosiy faoliyati chorvachilik hisoblanadi, sababi, eng yuqori ulush aynan chorvachilikka to'g'ri kelgan va shundan kelib chiqib korxonaning asosiy faoliyati IFUT-2 kodi belgilanadi.

3) O'rmonchilik va yog'och tayyorlash sohasida **sotilgan** mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmi;

Masalan: “D” korxonasi sanoat uchun dumaloq yog'och – taxta materiallarini ishlab chiqarish va asalarichilik, asal va asalari mumini ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullangan. Korxona hisobot yilida jami 76 mln.so'mlik ishlab chiqarilgan sanoat uchun dumaloq yog'och – taxta materiallari mahsulotlarini hamda 47 mln.so'mlik ishlab chiqarilgan asal sotgan. Korxonaning asosiy faoliyati quyidagicha aniqlanadi:

o'rmonchilik faoliyati ulushi – $76/123 \cdot 100 = 61,8 \%$;

asalarichilik faoliyati ulushi – $47/123 \cdot 100 = 38,2 \%$.

Shunday qilib, ushbu misolda korxonaning asosiy faoliyati o'rmonchilik hisoblanadi sababi, eng yuqori ulush aynan o'rmonchilikka to'g'ri kelgan va shundan kelib chiqib korxonaning asosiy faoliyati IFUT-2 kodi belgilanadi.

4) Baliq ovlash va akvakultura sohasida **sotilgan** mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmi;

Masalan. “E” korxonasi ichki suvlardan tijorat maqsadida baliq ovlash, quyon va boshqa mo'ynali hayvonlar ko'paytirish faoliyatlari bilan shug'ullangan. Korxona hisobot yilida jami 120 mln.so'mlik ovlangan baliq mahsulotlari hamda 40 mln.so'mlik quyon sotgan. Korxonaning asosiy faoliyati quyidagicha aniqlanadi:

baliqchilik faoliyati ulushi – $120/160 \cdot 100 = 75 \%$;

quyonchilik faoliyati ulushi – $40/160 \cdot 100 = 25 \%$.

Shunday qilib, ushbu misolda korxonaning asosiy faoliyati baliqchilik hisoblanadi sababi, eng yuqori ulush aynan baliqchilikka to'g'ri kelgan va shundan kelib chiqib korxonaning asosiy faoliyati IFUT-2 kodi belgilanadi.

5) Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi (QQSsiz) (o'z ehtiyojlari uchun, (xo'jalik usuli bilan) bajarilgan qurilish-montaj ishlari hamda foydalanishga tayyor holda qurib topshirish ishlari bo'yicha bajarilgan ishlar, uskuna sotib olish xarajatlari va boshqa kapital xarajatlardan tashqari);

Masalan: “F” korxonasi turar joy binolarini qurish va qurilish materiallari savdosi faoliyati bilan shug'ullangan. Korxona hisobot yilida jami o'z kuchi bilan 780 mln.so'mlik turar joy binolarini qurgan hamda savdoda 2,5 mlrd.so'mlik qurilish materiallari sotilgan, savdo xizmatlari (yalpi daromad) hajmi 340 mln.so'mni tashkil etdi. Korxonaning asosiy faoliyati quyidagicha aniqlanadi:

turar joy binolar qurish faoliyati ulushi – $780/1120 \cdot 100 = 69,6 \%$;

savdo faoliyati ulushi – $340/1120 \cdot 100 = 30,4 \%$.

Ushbu korxonaning asosiy faoliyati turi turar joy binolari qurish hisoblanadi sababi, eng yuqori ulush aynan turar joy binolarini qurishga to'g'ri kelgan va shundan kelib chiqib korxonaning asosiy faoliyati IFUT-2 kodi belgilanadi.

6) Qurilish obyektlarini sotish qiymati (jalb qilingan pudrat tashkilotlari bajargan qurilish ishlaridan tashqari);

7) Ko'rsatilgan xizmatlar (QQS va aksizsiz).

Ko'rsatilgan xizmatlarning turlari bo'yicha ma'lumotlar mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) statistik tasniflagichining (MST) 4 belgisi bo'yicha o'tkazilishi kerak. Shu bilan birga, ko'rsatilgan xizmatlar hajmidan agar korxonada asosiy faoliyatdan tashqari faoliyat (masalan: tezkor ijara, metallolom topshirish xizmatlari va shu kabilar) bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar mavjud bo'lsa, u holda bu xizmatlar hajmi jami xizmatlar hajmidan chiqarib tashlanadi.

Masalan: “G” korxonasi binolarni dezinfektsiyalash, zararli hasharot va kemiruvchilarni yo'qotish va qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash faoliyati bilan shug'ullangan. Korxona hisobot yilida jami 140 mln.so'mlik binolarni dezinfektsiyalagan hamda 80 mln.so'mlik qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash xizmatlarini amalga oshirgan. Shuningdek, korxonada 250 mln.so'mlik noturar binoning operativ ijarasidan olingan daromadi mavjud. Korxonaning asosiy faoliyati quyidagicha aniqlanadi:

binolarni dezinfektsiyalash faoliyati ulushi – $140/220 \cdot 100 = 63,6 \%$;

qishloq xo'jalik zararkunandalariga qarshi kurash faoliyati ulushi – $80/220 \cdot 100 = 36,4 \%$.

Ijara xizmatidan olingan 250 mln. so'mlik daromad – tezkor ijara bo'lib, korxona uchun asosiy faoliyatdan tashqari daromad hisoblanadi va ushbu faoliyat aktualizatsiya qilishda hisobga olinmaydi.

Shunday qilib ushbu misolda korxonaning asosiy faoliyati binolarni dezinfektsiyalash hisoblanadi sababi, eng yuqori ulush aynan binolarni dezinfektsiyalashga to'g'ri kelgan va shundan kelib chiqib korxonaning asosiy faoliyati IFUT-2 kodi belgilanadi.

15. Umumlashtirilgan jami aylanmadan ulushlar hisoblash orqali korxona va tashkilotlarning asosiy faoliyatiga o'zgartirish kiritilishi lozim bo'lgan ro'yxat shakllantiriladi.

4-bob. Kichik korxona va mikrofirmalardan tashqari tadbirkorlik subyektlarini aktualizatsiya qilish

16. Kichik korxona va mikrofirmalardan tashqari (banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari) tadbirkorlik subyektlarning faoliyat turi 1 korxona shakli

(yillik) “Tashkilot xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida”, xodimlar soni bo‘yicha 1 mehnat shakli (yillik) “Mehnat hisoboti” statistika hisobotlari ma’lumotlaridan foydalaniladi.

17. 1 korxona shakli (yillik) hisoboti bo‘yicha ham aktualizatsiya qilishning **asosiy mezonlari – amaldagi narxlarda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmi (aylanma) (QQS va aksizsiz)** hisoblanadi. 1 korxona shakli (yillik) hisobotining “Iqtisodiy faoliyat turlari” tegishli satr ma’lumotiga muvofiq, 1-ustunidan amaldagi narxlarda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmi, B ustunda faoliyatning ikkita belgisi bo‘yicha umumiy aylanmadan ulushi eng yuqorisini tanlash orqali ro‘yxat quyidagi jadvalga muvofiq aniqlanadi.

Korxona faoliyat turlarining jami aylanmadagi ulushlarini belgilangan mezonlar asosida hisoblash jadvali

1-jadval

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Faoliyat turi, mahsulot, ish, xizmat kodi	O‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot amaldagi narxlarda (ishlar, xizmatlar) qiymati (QQS va aksizsiz), ming so‘m	Jami aylanmadagi ulushi, % da	O‘tgan yildagi ulushi, % da	O‘rtacha xodimlar soni, kishi
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	10	73 000	37,1	37,6	8
Kiyim ishlab chiqarish	14	73 000	37,1	38,3	11
Qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	17	51 000	25,8	24,1	5

Izoh: Ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ish va xizmatlar)ning umumiy qiymatidagi har xil turdagi faoliyatning ulushlari bir-biriga teng (munozarali) bo‘lgan hollarda, iqtisodiy faoliyat turlaridagi xodimlarning o‘rtacha soni va ularning ish haqi fondini hisobga olish kerak. Demak, jadvalda keltirilgan misol bo‘yicha faoliyat turida kiyim ishlab chiqarish faoliyati ustunlik qilmoqda va shu faoliyat asosiy deb e’tirof etiladi.

18. Amaldagi narxlarda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmida IFUT-2 ning ikkitalik belgisi bo‘yicha eng yuqori ulushli faoliyat turiga ega subyektlar ro‘yxati shakllantiriladi va 1 korxona shakli yillik statistika hisoboti ma’lumotlari asosida subyektlarning IFUT-2 kodlarini belgilaydi.

5-bob. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini aktualizatsiya qilish tartibi

19. Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi 1 mehnat (yillik) hisoboti ma'lumotlariga asosan kichik korxona va mikrofirmalardan tashqari tadbirkorlik subyektlari xodimlari (mazkur korxonada mehnat daftarchasi mavjud xodimlar, tashqi o'rindoshlar hamda fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlovchilar)ning yillik o'rtacha soni, kasanachilar va oxirgi uch yilda kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarini bitirganlarning yillik o'rtacha soni bo'yicha ma'lumotlarni KTYADR ma'lumotlar bazasida o'zgartirish kiritish uchun qabul qilingan hisobotlar ro'yxatini har kuni qayta ishlash muddati (1 mehnat (yillik) hisoboti bo'yicha) tugagunga qadar Registr boshqarmasiga taqdim etadilar. Registr boshqarmasi bir kun muddatda KTYADR ma'lumotlar bazasida tegishli o'zgartirishlar kiritadi.

KTYADR ma'lumotlar bazasida o'rtacha xodimlar sonini o'zgartirish taklif etilayotgan korxonalar ro'yxati

2-jadval

№	KTUT	INN	SOATO	Korxona nomi	Xodimlarning yillik o'rtacha soni, kishi	Oxirgi uch yilda kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilarining yillik o'rtacha soni, kishi	Kasanachilar-ning yillik o'rtacha soni, kishi
1							
2							
...							

20. Tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o'rtacha xodimlarining soni to'g'risidagi ma'lumotlarni yangilash mas'ul boshqarmalar tomonidan ushbu reglamentning 1, 2, 3, 4-ilovalarida keltirilgan mexanizm asosida amalga oshiriladi.

21. Mas'ul boshqarmalar o'zgartirilishi lozim bo'lgan subyektlar ro'yxatini yangi taklif etilayotgan IFUT-2 kodi bilan Registr boshqarmasiga tasdiqlangan holda quyida keltirilgan namunaviy jadval asosida taqdim etadi.

KTYADR ma'lumotlar bazasida IFUT-2 kodini o'zgartirish taklif etilayotgan korxonalar ro'yxati

3-jadval

№	KTUT	INN	SOATO	Korxona nomi	Amaldagi IFUT-2 kodi	Taklif etilayotgan IFUT-2 kodi
1						
2						
....						

22. Tadbirkorlik boshqarmasi 1 kb (yillik) hisobot ma'lumotlariga asosan kichik korxona va mikrofirmalarda ishlovchi xodimlar (mazkur korxonada mehnat daftarchasi mavjud xodimlar, tashqi o'rindoshlar hamda fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlovchilar)ning yillik o'rtacha soni, kasanachilar va oxirgi uch yilda kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy ta'lim muassasalarini bitirganlarning yillik o'rtacha soni bo'yicha ma'lumotlarni KTYADR ma'lumotlar bazasida o'zgartirish kiritish uchun qabul qilingan hisobotlar ro'yxatini har kuni qayta ishlash muddati (1 kb (yillik) hisoboti bo'yicha) tugagunga qadar Registr boshqarmasiga taqdim etadi.

23. Registr boshqarmasi tadbirkorlik subyektlarining yillik o'rtacha xodimlar soni bo'yicha tegishli o'zgartirishlarni barcha ma'lumotlar taqdim qilingandan so'ng bir kun muddat ichida amalga oshiradi.

Ushbu o'zgarishlar hududiy statistika boshqarmalari tomonidan Internet global tarmog'i orqali "tadbirkorlik subyektining shaxsiy kabineti", u mavjud bo'lmaganda – pochta aloqa xizmati orqali, bu haqda tadbirkorlik subyektini xabardor qilishlari uchun yuboradi.

24. Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi Registr boshqarmasi bilan birgalikda:

ushbu reglamentning xalqaro va milliy standartlar, uslubiy qo'llanmalarga asosan va amaldagi qonunchilikka muvofiq o'zgartirishlar kiritib borilishini hamda aktualizatsiya qilish ishlari faqat ushbu reglamentda ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq amalga oshirilishini tashkil etadilar;

aktualizatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bahsli munozaralarga hamda nomuvofiqliklarga aniq ko'rsatma, tavsiya va xulosalar berib boradilar.

25. Aktualizatsiya jarayoniga bog'liq bo'lmagan ammo, unga qo'shimcha ravishda KTYADRda tadbirkorlik subyektlarining asosiy faoliyat turi kodini yoki xodimlar sonini o'zgartirilishi quyidagi holatlarda amalga oshiriladi:

yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazishda;

yuridik shaxsning ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda;

yuridik shaxsni qayta tashkil etishni davlat ro'yxatidan o'tkazishda;

yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga yuridik shaxs tugatilganligi yoki qayta tashkil etilgan yuridik shaxsning faoliyati to'xtatilganligi to'g'risidagi yozuvlarni kiritishda;

ro'yxatdan o'tkazuvchi organdan yuridik shaxs tomonidan moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilmayotganligi yoki harakatsiz holatga o'tkazilganligi, shuningdek, uning ixtiyoriy tugatish jarayonidaligi yoki tugatish jarayonining to'xtatilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar olinganda;

yuridik shaxsning joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgarganda;

yuridik shaxsning asosiy faoliyat turi va unda ishlayotganlarning o'rtacha yillik soni o'zgarganda — yillik statistika hisoboti asosida hamda yuridik shaxslar va (yoki) ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarning murojaatlari asosida quyidagi hollarda:

yuridik shaxs yangi tashkil etilgan vaqtda asosiy faoliyat turi (IFUT) kodini biriktirishda yoki xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotni to'ldirishda noaniqlikka yo'l qo'yilgan deb hisoblanganda;

yuridik shaxs faoliyat ko'rsatmayotganda, qo'shib olish yo'li bilan qayta tashkil etilganda, belgilangan tartibda faoliyati tiklanganda;

yuridik shaxs qayta ro'yxatdan o'tib, ta'sis hujjatlarida ushbu faoliyat turi asosiy faoliyat turi deb belgilanganda;

yuridik shaxs ma'lum faoliyatni amalga oshirish bo'yicha litsenziya olganda yoki litsenziyasi bekor qilinganda;


26. Elektron shaklda taqdim etilmaydigan (ya'ni tarqatilishi cheklangan grifiga ega bo'lgan) korxonalar uchun asosiy iqtisodiy faoliyat turi va yillik o'rtacha xodimlar sonini yangilash bo'yicha Birinchi bo'lim boshlig'i mas'ul tarmoq boshqarmasi boshlig'i bilan birgalikda ushbu reglamentda belgilangan muddatlarda Registr boshqarmasiga taklif kiritadi.

27. Aktualizatsiya jarayonida hajmsiz hisobot taqdim etib, keyinchalik hajmli topshirgan va hisobotdagi ko'rsatkichlarni o'zgartirib qayta hisobot taqdim etgan tadbirkorlik subyektlarining IFUT-2 kodlarini yangilash bo'yicha mas'ul boshqarma boshliqlari aktualizatsiya jarayonida navbatdagi o'zgarishlarni taqdim etayotgan paytda qayta ko'rib chiqib, ular bo'yicha ham takliflarni Registr boshqarmasiga tasdiqlagan holda taqdim etadilar. Registr boshqarmasi ushbu subyektlarning IFUT-2 kodlariga KTYADR bazasida bir ish kuni ichida o'zgarishlar kiritadi.


6- bob. Yakuniy qoidalar.

28. Mazkur Reglamentni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli.0” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.


Canoat sohasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyat turlarini aniqlash va kodlashtirish MEXANIZMI



**Qurilish faoliyati bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning
faoliyat turlarini aniqlash va kodlashtirish
MEXANIZMI**



Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi faoliyat turi boʻyicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyat turlarini aniqlash va kodlashtirish MEXANIZMI



Xizmatlar va savdo faoliyat turi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning faoliyat turlarini aniqlash va kodlashtirish
MEXANIZMI

